



**THE PRACTICE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN IN
USING INTERNATIONAL PREFERENCES: STATUS OF
LEGAL REGULATION AND PROSPECTS FOR
IMPROVEMENT**

Suyunov Elnurjon Akhadillo oglu

Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan

Master's student in the field of "International Human Rights Law"

elnurjonsuyunov@gmail.com

+998993444472

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19724934>

ARTICLE INFO

Received: 18th April 2026

Accepted: 23rd April 2026

Online: 24th April 2026

KEYWORDS

*International preferences,
developing states, GSP+,
World Trade
Organization, foreign
economic activity, special
and differential
treatment.*

ABSTRACT

This article provides a legal analysis of Uzbekistan's practice of utilising the international trade preference system. The study aims to assess the regulatory framework for implementing international trade concessions as a landlocked developing country, identify the institutional and legal barriers to their effective use, and outline priority recommendations for addressing these challenges. The research employs normative, comparative-legal, and systemic methods. The study finds that Uzbekistan has established preliminary legal foundations for benefiting from international preferences; however, significant challenges persist, including fragmented regulation, complexity in applying rules of origin, insufficient digitalization, and high transport and logistics costs. The article concludes with recommendations for improving national legislation and institutional mechanisms.

**ПРАКТИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКОЙ УЗБЕКИСТАН
МЕЖДУНАРОДНЫХ ПРЕФЕРЕНЦИЙ: СОСТОЯНИЕ ПРАВОВОГО
РЕГУЛИРОВАНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ**

Суюнов Элнуржон

магистрант направления «Международное право прав человека»

Академия правоохранительных органов Республики Узбекистан

elnurjonsuyunov@gmail.com, +998993444472

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19724934>

ARTICLE INFO

Received: 18th April 2026

Accepted: 23rd April 2026

Online: 24th April 2026

ABSTRACT

В статье проводится правовой анализ практики использования Республикой Узбекистан международной системы торговых преференций. Цель исследования состоит в оценке нормативной базы реализации международных торговых льгот, исходя из статуса развивающегося и двойного государства, не имеющего выхода к морю, выявлении



KEYWORDS

Международные
преференции,
развивающиеся
государства, GSP+,
Всемирная торговая
организация,
внешнеэкономическая
деятельность,
специальный и
дифференцированный
режим.

институциональных и правовых барьеров, а также
определении приоритетных направлений их
устранения. В работе использованы нормативно-
правовой, сравнительно-правовой и системный
методы исследования. Установлено, что в
Узбекистане сформированы первичные правовые
основы для использования международных
преференций, однако сохраняются проблемы,
связанные с фрагментарностью регулирования,
сложностью применения правил происхождения
товаров, недостаточным уровнем цифровизации и
высокими транспортно-логистическими
издержками. В заключении разрабатываются
рекомендации по совершенствованию национального
законодательства и институциональных
механизмов.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING XALQARO PREFERENSIYALARDAN
FOYDALANISH AMALIYOTI: HUQUQIY TARTIBGA SOLISH HOLATI VA
TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI**

Suyunov Elnurjon Axadillo o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi

"Inson huquqlariga oid xalqaro huquq" yo'nalishi magistratura tinglovchisi

elnurjonsuyunov@gmail.com, +998993444472

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19724934>

ARTICLE INFO

Received: 18th April 2026

Accepted: 23rd April 2026

Online: 24th April 2026

KEYWORDS

Xalqaro preferensiyalar,
rivojlanayotgan davlatlar,
GSP+, Jahon savdo
tashkiloti, tashqi iqtisodiy
faoliyat, maxsus va
differensial yondashuv.

ABSTRACT

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasining xalqaro
preferensiyalar tizimidan foydalanish amaliyoti huquqiy
jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi
mamlakatning rivojlanayotgan va dengizga chiqish
imkoniyati cheklangan davlat maqomidan kelib chiqqan
holda xalqaro savdo imtiyozlarini amalga oshirishning
huquqiy asoslarini baholash, amaliyotdagi institutsional va
huquqiy to'siqlarni aniqlash hamda ularni bartaraf
etishning ustuvor yo'nalishlarini belgilashdan iborat.
Maqolada normativ-huquqiy, qiyosiy-huquqiy va tizimli
tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot natijasida
O'zbekistonda xalqaro preferensiyalardan foydalanish
uchun dastlabki huquqiy asos shakllangani, biroq tartibga
solishning tarqoqligi, kelib chiqish qoidalarini qo'llashdagi
murakkabliklar, raqamlashtirish darajasining yetarli
emasligi va transport-logistika xarajatlarining yuqoriligi
asosiy muammolar sifatida saqlanib qolayotgani
aniqlanadi. Maqola yakunida milliy qonunchilik va



institutsional mexanizmlarni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kirish

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning globallashtirib borishi sharoitida rivojlanayotgan davlatlar uchun preferensial savdo tizimlari tashqi iqtisodiy siyosatning muhim vositasiga aylandi. Ushbu tizimlar bir tomondan xalqaro bozorga kirishni osonlashtirsa, ikkinchi tomondan milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish uchun huquqiy mexanizmlar yaratadi. Biroq preferensiyalardan samarali foydalanish nafaqat ularga rasman ega bo'lishni, balki mazkur imtiyozlarni milliy huquq tizimi orqali amalda qo'llash layoqatini ham taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi xalqaro huquqda dengizga chiqish imkoniyati ikki karra cheklangan rivojlanayotgan davlat (*double landlocked developing country*) sifatida e'tirof etilgan bo'lib, ushbu maqom mamlakatga bir qator savdo imtiyozlaridan foydalanish huquqini beradi¹. Ayniqsa, 2017-yildan boshlangan keng ko'lamlı iqtisodiy va huquqiy islohotlar O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy hamjamiyatga integratsiyalashuvida sifat jihatidan yangi bosqichni boshlab berdi. Yevropa Ittifoqining GSP+ rejimiga qo'shilish va Jahon savdo tashkiloti (JST) ga a'zolik bo'yicha olib borilayotgan muzokaralar

ushbu jarayonning asosiy ko'rinishlari hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi O'zbekistonning xalqaro preferensiyalardan foydalanish amaliyotini ilmiy-huquqiy jihatdan baholash, ushbu sohadagi huquqiy bazaning holati va institutsional muammolarni aniqlash hamda milliy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda preferensiyalardan foydalanish masalasi iqtisodiy samaradorlik mezonlari bilan bir qatorda huquqiy tartibga solishning tizimlilik darajasi hamda xalqaro majburiyatlarga muvofiqligi nuqtayi nazaridan baholanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada normativ-huquqiy tahlil, tizimli yondashuv va funksional baholash metodlaridan foydalanildi. Normativ-huquqiy tahlil yordamida O'zbekiston Respublikasining bojxona, tashqi savdo va xalqaro shartnomalar sohasidagi amaldagi qonunchilik bilan xalqaro preferensiya tizimlari talablari o'rtasidagi moslik darajasi o'rganildi.

Ushbu metodologik yondashuvning asosiy afzalligi shundaki, u normaning rasmiy mavjudligini emas, balki uning amaliy ishlash darajasini aniqlashga

¹UNCTAD, Landlocked Developing Countries: A Decade of Progress. Geneva: United Nations, 2022, p. 7. [Elektron resurs]. URL:

https://unctad.org/system/files/official-document/aldc2022d1_en.pdf. (Murojaat qilingan sana: 31.03.2026).



xizmat qiladi. Preferensiyalardan foydalanish sohasida huquqiy tartibga solishning to'liqligi va institutsional salohiyat bilan bir qatorda ma'muriy tartib-taomillarning samaradorligi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki imtiyozning amaliy ta'siri aynan ushbu omillar bilan belgilanadi.

O'zbekistonning xalqaro preferensiyalar tizimidagi o'rni

O'zbekiston xalqaro huquqda rivojlanayotgan davlat sifatida e'tirof etilgan bo'lib, mazkur maqom mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi, geografik joylashuvi va ijtimoiy ko'rsatkichlariga asoslanadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tizimida O'zbekiston ikki karra dengizga chiqish imkoniyati cheklangan rivojlanayotgan davlat maqomiga ega bo'lib, ushbu holat nafaqat geografik xususiyatni, balki xalqaro savdo va transport tizimlariga integratsiyalashuvdagi tizimli to'siqlarni ham ifodalaydi².

2017-yildan boshlangan islohotlar davri mamlakatning xalqaro iqtisodiy tizimga integratsiyalashuvini sezilarli tezlashtirdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Harakatlar strategiyasi va keyinchalik Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi doirasida tashqi iqtisodiy faoliyatni liberallashtirish,

valyuta bozorini erkinlashtirish va xalqaro savdo tashkilotlariga qo'shilishni jadallashtirish asosiy ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilandi³. Ushbu siyosiy hujjatlar o'z mazmunida huquqiy islohotlarning strategik yo'nalishlarini ham belgilab, milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish zaruratini aniq ifodaladi.

O'zbekiston 1994-yildan buyon Jahon savdo tashkilotida kuzatuvchi maqomiga ega bo'lib, 2019-yildan boshlab to'liq a'zolikka qo'shilish bo'yicha faol muzokaralarni olib bordi. 2025-yil mobaynida JSTga a'zo bo'lgan 34 davlatdan 33 tasi bilan ikki tomonlama muzokaralar muvaffaqiyatli yakunlandi⁴. Shu bilan birga, a'zolik jarayonida qabul qilingan qonunchilik islohotlari ham alohida ahamiyat kasb etadi: 2025-yilda 30 ta normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi, ular bojxona tartibotlari, eksport bojlari, intellektual mulk muhofazasi va sanitariya-fitosanitariya sohalarini qamrab oldi.

O'zbekistonning savdo preferensiyalari sohasidagi eng muhim yutug'i Yevropa Ittifoqining umumiy preferensiyalar tizimi (GSP+) rejimiga qo'shilishi hisoblanadi. Mamlakat 2021-yil 10-apreldan Yevropa Ittifoqining GSP+ tizimidan foydalanib kelmoqda⁵.

² UN-OHRLS (United Nations Office of the High Representative for the Least Developed Countries, Landlocked Developing Countries and Small Island Developing States), About Landlocked Developing Countries. [Elektron resurs]. URL: <https://www.un.org/ohrlls/content/about-landlocked-developing-countries>. (Murojaat qilingan sana: 20.04.2026).

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida". [Elektron

resurs]. URL: <https://lex.uz/docs/5841063>. (Murojaat qilingan sana: 22.04.2026).

⁴WTO, Accession Working Party Report on Uzbekistan, WT/ACC/UZB/2025, Geneva: WTO, 2025, paras. 12–18. [Elektron resurs]. URL: https://docs.wto.org/dol2fe/Pages/FE_Search/FE_S_S009DP.aspx?documentcode=WT-/ACC/UZB-/2025. (Murojaat qilingan sana: 10.04.2026).

⁵Regulation (EU) No 978/2012 of the European Parliament and of the Council of 25 October 2012 Applying a Scheme of Generalised Tariff



Ushbu maqomga erishish uchun O'zbekiston mehnat huquqlari, inson huquqlari, atrof-muhit muhofazasi va boshqaruv sohasiga oid 27 ta xalqaro konvensiyani ratifikatsiya qildi hamda ularning amalga oshirilishini ta'minlash majburiyatini oldi⁶. GSP+ qoidalari doirasida 6200 turdagi mahsulotni bojxona to'lovlarisiz Yevropa Ittifoqi bozorlariga eksport qilish imkoniyati yaratildi⁷.

GSP+ rejimining amaliy ta'siri statistik ko'rsatkichlarda aniq ifodalanadi. 2021-yildan 2024-yilga qadar O'zbekistonning Yevropa Ittifoqiga eksporti deyarli ikki baravarga oshdi: to'qimachilik mahsulotlari, tayyor kiyim-kechak, mineral o'g'itlar hamda mevasabzavot konservalari eksportida barqaror o'sish qayd etildi⁸. Preferensiyalar tufayli eksport qiluvchi korxonalar yiliga o'rtacha 28–35 million yevro miqdorida bojxona to'lovlaridan

ozod bo'lmoqda, bu esa mahsulotlarning narx jihatidan raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda⁹.

Biroq mazkur ijobiy o'zgarishlar bilan bir qatorda muhim kamchiliklar ham kuzatilmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va taraqqiyot bo'yicha konferensiyasi ma'lumotlariga ko'ra, eksport qiluvchi korxonalarining atigi 35–40 foizi GSP preferensiyalaridan amalda foydalanmoqda¹⁰. Shuningdek, O'zbekistonning Yevropa Ittifoqidagi savdo ulushi umumiy eksportning 10–12 foizidan oshmaydi. Bu holat mamlakatning mavjud preferensiya imkoniyatlaridan to'laqonli foydalana olmayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, qayta ishlangan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, kimyo va farmatsevtika sanoati bo'yicha eksport salohiyati yetarlicha amalga oshirilmagan. JSTga a'zolik esa mamlakatlarga eng qulay savdo rejimi

Preferences // Official Journal of the European Union. OJ L 303, 31.10.2012. [Elektron resurs]. URL: <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX:32012R0978>. (Murojaat qilingan sana: 20.04.2026).

⁶European Commission, Commission Delegated Regulation (EU) 2020/1987 of 30 November 2020 Amending Annex III to Regulation (EU) No 978/2012 of the European Parliament and of the Council to Include the Republic of Uzbekistan as a GSP+ Beneficiary Country // Official Journal of the European Union. OJ L 416, 11.12.2020. [Elektron resurs]. URL: <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX:32020R1987>. (Murojaat qilingan sana: 22.04.2026).

⁷European Commission, GSP+ Enhanced Engagement Report: Uzbekistan. Brussels: European Commission, 2023, p. 14. [Elektron resurs]. URL: https://trade.ec.europa.eu/doclib/docs/2023/november/tradoc_172458.pdf. (Murojaat qilingan sana: 20.04.2026).

⁸Eurostat, EU Trade by Partner Country 2021–2024. Luxembourg: Eurostat, 2024. [Elektron resurs]. URL: <https://ec.europa.eu/eurostat/web/international-trade-in-goods/data/database>. (Murojaat qilingan sana: 10.03.2026).

⁹O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, Tashqi savdo aylanmasi hisoboti 2024. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, 2024. [Elektron resurs]. URL: <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/go-mita-yangiliklar/59511-o-zbekiston-respublikasi-tashqi-savdo-aylanmasi-2024-yil-yanvar-noyabr-2> (Murojaat qilingan sana: 10.03.2026).

¹⁰UNCTAD, Generalized System of Preferences: Handbook on the Scheme of the European Union, UNCTAD/ITCD/TSB/Misc.25/Rev.4. Geneva: United Nations, 2024, p. 31. [Elektron resurs]. URL: https://unctad.org/system/files/official-document/itcdtsbmisc25rev4_en.pdf. (Murojaat qilingan sana: 10.03.2026).



huquqidan foydalanish va savdo nizolarini xalqaro arbitraj orqali hal etish imkonini berishi lozim¹¹.

Xalqaro preferensiyalardan foydalanishdagi huquqiy muammolar

O'zbekiston JSTga a'zo bo'lgach, rivojlanayotgan davlat maqomiga doir maxsus va differensial yondashuv imtiyozlarini qancha muddat va qanday hajmda saqlab qolish masalasi dolzarb huquqiy muammoga aylanadi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, JSTga qo'shilish jarayonida rivojlangan a'zo davlatlar rivojlanayotgan davlatlardan ushbu imtiyozlarni bosqichma-bosqich cheklashni talab qiladi. Xitoyning 2001-yilda JSTga qo'shilish tajribasi buning yaqqol misolidir¹². O'zbekiston uchun muzokaralar doirasida avtomobilsozlik, qishloq xo'jaligi va ayrim sanoat tarmoqlari uchun 3 yildan 8 yilgacha bo'lgan o'tish davrlari belgilangan¹³. Ushbu muddatlar tugagach, mazkur tarmoqlar xalqaro raqobat sharoitida mustaqil faoliyat yuritishga tayyor bo'lishi talab etiladi. Milliy huquq tizimida o'tish davrlarini strategik boshqarish va ijrosini monitoring

qilishga doir mexanizmlarning yetarli darajada shakllanmaganligi jiddiy muammo bo'lib qolmoqda.

Xalqaro preferensiyalardan foydalanishni tizimli tartibga soluvchi yagona normativ-huquqiy hujjatning mavjud emasligi huquqiy tartibga solishdagi asosiy kamchilikdir. Amaldagi normalar turli darajadagi qonunlar va qonunosti hujjatlarida tarqoq holda mustahkamlangan. O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksida bojxona imtiyozlari va tovar kelib chiqishini aniqlashning umumiy qoidalari nazarda tutilgan bo'lsa-da¹⁴, xalqaro preferensial rejimlarning o'ziga xos xususiyatlari, muvofiqlikni tasdiqlovchi hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi hamda preferensial rejimdan foydalanishning aniq shartlari yetarli darajada tartibga solinmagan.

Hujjatlar aylanmasini raqamlashtirish darajasining yetarli emasligi ham alohida tahlilni taqozo etadi. Garchi elektron sertifikatlashtirish va "yagona darcha" bojxona axborot tizimlari joriy etilgan bo'lsa-da¹⁵, amaliyotda vakolatli davlat organlari

¹¹WTO, Marrakesh Agreement Establishing the World Trade Organization, Article I:1: General Most-Favoured-Nation Treatment; Understanding on Rules and Procedures Governing the Settlement of Disputes (DSU). Geneva: WTO, 1994. [Elektron resurs]. URL: https://www.wto.org/english/docs_e/legal_e/legal_e.htm. (Murojaat qilingan sana: 10.03.2026).

¹²WTO, Report of the Working Party on the Accession of China, WT/ACC/CHN/49. Geneva: WTO, 2001, paras. 152–160. [Elektron resurs]. URL: https://docs.wto.org/dol2fe/Pages/FE_Search/FE_S_S009DP.aspx?document-code=WT/ACC/CHN/49. (Murojaat qilingan sana: 10.03.2026).

¹³WTO Accession Working Party, Uzbekistan: Draft Schedule of Concessions and Commitments on Goods, Annex III: Transition Periods. Geneva: WTO, 2025. [Elektron resurs]. URL:

https://docs.wto.org/dol2fe/Pages/FE_Search/FE_S_S009-DP.aspx?documentcode=WT/ACC/UZB/.

(Murojaat qilingan sana: 10.03.2026).

¹⁴O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi: 2016 yil 20 yanvardagi O'RQ-400-son Qonuni bilan tasdiqlangan. Toshkent, 2016. [Elektron resurs]. URL: <https://lex.uz/docs/2876354>. (Murojaat qilingan sana: 19.04.2026).

¹⁵O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 17 noyabrdagi 305-



bazalarining idoralararo darajada to'liq integratsiyalashmaganligi sababli, eksport qiluvchilar ko'pincha hujjatlarni qog'oz shaklida rasmiylashtirishga majbur bo'lmoqda. Buning natijasida tranzaksiya xarajatlari oshadi, rasmiylashtiruv muddati uzayadi va ayniqsa tez buziladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportida logistika muammolari keskinlashadi¹⁶.

Texnik standartlar va sertifikatlashtirish tizimidagi muammolar ham alohida huquqiy tahlilni taqozo etadi. O'zbekistondagi milliy sertifikatlashtirish agentliklari xalqaro e'tirof etilgan akkreditatsiya tizimlari bilan to'liq integratsiyalashmagan¹⁷. Shu sababli, Yevropa Ittifoqi bozori uchun talab etiladigan HACCP, BRC yoki IFS standartlari bo'yicha sertifikatlarni mamlakatdagi akkreditatsiya markazlari mustaqil ravishda berolmaydi va eksport

qiluvchilar xorijiy tashkilotlarga murojaat etishga majbur bo'ladi¹⁸. Fitosanitariya va veterinariya sohalarida ham xalqaro talablarga to'liq muvofiqlashmagan holat kuzatilmoqda¹⁹. Mazkur institutsional kamchilik preferensiyalardan foydalanishning "qog'ozda mavjud, amaliyotda cheklangan" xususiyatini yuzaga keltirmoqda.

Transport va logistika xarajatlarning yuqoriligi esa O'zbekiston eksportining narx raqobatbardoshligiga bevosita ta'sir qiluvchi omil hisoblanadi. Mamlakatdan eksport qilinadigan mahsulotlarni Yevropa, Osiyo yoki Amerika bozorlariga yetkazib berish uchun bir necha tranzit davlatlar hududidan o'tish talab etiladi²⁰. Har bir tranzit bosqichi bojxona yig'implari, transport tariflari va yo'l to'lovlari bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlarni yuzaga keltiradi²¹. Natijada transport-logistika

son Qarori "Eksport operatsiyalarini "bir darcha" tamoyili bo'yicha amalga oshirish mexanizmini bosqichma-bosqich joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida". [Elektron resurs]. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-1899501>. (Murojaat qilingan sana: 20.04.2026).

¹⁶World Bank, Doing Business in Uzbekistan: Trade Across Borders Indicators. Washington DC: World Bank, 2023, p. 88. [Elektron resurs]. URL: <https://www.doingbusiness.org/en/data/exploreconomies/uzbekistan>. (Murojaat qilingan sana: 18.04.2026).

¹⁷ISO/IEC 17011:2017, Conformity Assessment — Requirements for Accreditation Bodies Accrediting Conformity Assessment Bodies. Geneva: ISO, 2017. [Elektron resurs]. URL: <https://www.iso.org/standard/67198.html>. (Murojaat qilingan sana: 17.04.2026).

¹⁸ ITC (International Trade Centre), Uzbekistan: Company Perspectives – An ITC Series on Non-Tariff Measures, Geneva, 2020, 32–35-b. [Elektron resurs]. URL:

<https://intracen.org/resources/publications/uzbekistan-company-perspectives-an-itc-series-on-non-tariff-measures>. (Murojaat qilingan sana: 10.03.2026).

¹⁹European Commission, Audit Report on Uzbekistan's Food Safety Control Systems. DG SANTE. Brussels: European Commission, 2023. [Elektron resurs]. URL: <https://food.ec.europa.eu/system/files/2023-audit-report-uzbekistan-food-safety.pdf>. (Murojaat qilingan sana: 18.04.2026).

²⁰UNCTAD, Review of Maritime Transport 2023, Chapter 5: Landlocked Developing Countries and Transit Costs. New York–Geneva: United Nations, 2023. [Elektron resurs]. URL: https://unctad.org/system/files/official-document/rmt2023_en.pdf. (Murojaat qilingan sana: 15.04.2026).

²¹ UN General Assembly, Almaty Programme of Action: Addressing the Special Needs of Landlocked Developing Countries within a New Global Framework for Transit Transport Cooperation, UN Doc. A/CONF.202/3, 28 August 2003. [Elektron



xarajatlari mahsulotning yakuniy eksport qiymatida sezilarli ulushni egallaydi va bu holat GSP+ imtiyozlari bergan raqobatbardoshlik ustunligini qisman kamaytiradi²²²³.

Xalqaro preferensiyalardan samarali foydalanishning ustuvor yo'nalishlari

Birinchi ustuvor yo'nalish – xalqaro preferensiyalar sohasida yagona tizimli normativ-huquqiy bazani yaratishdir. Buning uchun mavjud tarqoq normalarni birlashtiruvchi, preferensial savdo rejimlarining amaliy mexanizmlarini batafsil tartibga soluvchi maxsus qonunchilik hujjatini ishlab chiqish zarur. Ushbu hujjatda kelib chiqish qoidalarini qo'llashning aniq tartibi, vakolatli organlar o'rtasida vazifalar taqsimoti, rad etish asoslarining chegaralari va eksport qiluvchilarga huquqiy yordam ko'rsatish mexanizmlari belgilanishi lozim.

Ikkinchi ustuvor yo'nalish – milliy akkreditatsiya va texnik tartibga solish infratuzilmasini xalqaro standartlarga moslashtirish hisoblanadi. Milliy akkreditatsiya tizimini xalqaro akkreditatsiya forumi talablariga to'liq muvofiqlashtirish, oziq-ovqat sanoati uchun HACCP tamoyillari bo'yicha milliy sertifikatlashtirish imkoniyatini shakllantirish va fitosanitariya nazoratini xalqaro standartlar talabiga ko'tarish preferensiyalardan foydalanish samaradorligini tubdan oshiradi.

Uchinchi ustuvor yo'nalish – JSTga a'zolik jarayonida maxsus va differensial yondashuv imtiyozlarini strategik boshqarishdir. O'tish davrlarini monitoring qilish, sezgir tarmoqlarning raqobatga tayyorligini baholash hamda preferensiyalar bekor qilinishidan avval muqobil bozorlar va eksport mahsulot turlarini kengaytirish strategiyasini ishlab chiqish huquqiy va iqtisodiy barqarorlik uchun zaruriy shart hisoblanadi.

Beshinchi ustuvor yo'nalish – eksport qiluvchi korxonalarining preferensiyalar haqidagi xabardorligini oshirish va ularga huquqiy yordam ko'rsatishdir. UNCTAD ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, preferensiyalardan foydalanish darajasining pastligida ma'lumot yetishmasligi muhim rol o'ynaydi. Shu sababli axborot markazlari, elektron maslahat platformalari va kichik-o'rta biznes uchun mo'ljallangan preferensiya hisoblash vositalari kabi yordamchi institutlarni shakllantirish xalqaro tajribada o'zining yuqori samaradorligini isbotlagan.

Xulosa

Tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda xalqaro preferensiyalardan foydalanish uchun dastlabki huquqiy va institutsional asoslar shakllangan. GSP+ rejimiga qo'shilish, JSTga a'zolik jarayonidagi sezilarli muvaffaqiyatlar va qonunchilik islohotlari ushbu yo'nalishda muhim

resurs]. URL: <https://undocs.org/A/CONF.202/3>. (Murojaat qilingan sana: 20.04.2026).

²² UN General Assembly Resolution A/RES/69/137, Vienna Programme of Action for Landlocked Developing Countries for the Decade 2014–2024, 12 December 2014. [Elektron resurs]. URL: <https://undocs.org/A/RES/69/137>. (Murojaat qilingan sana: 20.04.2026).

²³ Asian Development Bank, CAREC Transport Corridor Programme 2023. Manila: ADB, 2023. [Elektron resurs]. URL: <https://www.adb.org/documents/carec-transport-corridor-programme-2023>. (Murojaat qilingan sana: 20.04.2026).



natijalarni berdi. Biroq erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda huquqiy tartibga solishning tarqoqligi, kelib chiqish qoidalarini qo'llashdagi institutsional muammolar, raqamlashtirishning yetarli emasligi va transport-logistika xarajatlarining yuqoriligi kabi tizimli to'siqlar saqlanib qolmoqda.

Mazkur muammolarni bartaraf etmasdan turib, preferensiyalar rasmiy huquqiy imkoniyat sifatida mavjud bo'lib

qolaveradi, ammo ularning milliy iqtisodiyotga tizimli ta'siri cheklangan bo'ladi. Shu bois O'zbekiston uchun asosiy vazifa preferensiyalar sohasida yagona normativ-huquqiy hujjat yaratish, sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish, akkreditatsiya infratuzilmasini xalqaro standartlarga moslashtirish, JSTga a'zolikning o'tish davrlarini strategik boshqarish va eksport qiluvchilarining xabardorligini oshirishdan iborat.

References:

1. O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son);
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Eksport operatsiyalarini 'bir darcha' tamoyili bo'yicha amalga oshirish mexanizmini bosqichma-bosqich joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2011-yil 17-noyabrdagi 305-son qarori. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 25.06.2021-y., 09/21/393/0596-son);
3. WTO, Marrakesh Agreement Establishing the World Trade Organization, 1994;
4. Regulation (EU) No 978/2012 of the European Parliament and of the Council of 25 October 2012 Applying a Scheme of Generalised Tariff Preferences // Official Journal of the European Union. OJ L 303, 31.10.2012;
5. European Commission, Commission Delegated Regulation (EU) 2020/1987 of 30 November 2020 (Uzbekistan GSP+ status) // Official Journal of the European Union. OJ L 416, 11.12.2020;
6. UN General Assembly, Almaty Programme of Action, UN Doc. A/CONF.202/3, 2003;
7. UN General Assembly Resolution A/RES/69/137, Vienna Programme of Action for Landlocked Developing Countries, 2014;
8. UNCTAD, Generalized System of Preferences: Handbook on the Scheme of the European Union. Geneva: United Nations, 2024;
9. UN-OHRLLS, About Landlocked Developing Countries;
10. European Commission, GSP+ Enhanced Engagement Report: Uzbekistan. Brussels, 2023;
11. WTO, Accession Working Party Report on Uzbekistan, 2025;
12. WTO, Report of the Working Party on the Accession of China, 2001;
13. WTO Accession Working Party, Uzbekistan Draft Schedule of Concessions, 2025;
14. World Bank, Doing Business in Uzbekistan: Trade Across Borders Indicators. Washington DC, 2023;
15. ITC, Uzbekistan: Company Perspectives – Non-Tariff Measures. Geneva, 2020;
16. European Commission, Audit Report on Uzbekistan's Food Safety Control Systems. Brussels, 2023;



17. UNCTAD, Review of Maritime Transport 2023. New York–Geneva: United Nations, 2023;
18. Asian Development Bank, CAREC Transport Corridor Programme 2023. Manila: ADB, 2023;
19. Eurostat, EU Trade by Partner Country 2021–2024. Luxembourg, 2024;
20. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, Tashqi savdo aylanmasi hisoboti 2024. Toshkent, 2024;